

## BOQUVCHISINI YO'QOTGAN BOLALARNING ILMIY TOMONDAN YUKSALISHDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ROLI

Valiyeva Xurshida

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

2-bosqich talabasi

Tel:+998339029003

[xurshidavaliyeva01@gmail.com](mailto:xurshidavaliyeva01@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7127536>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola endigina voyaga yetib katta hayot sari qadam tashlab kelayotgan, shu bilan birga ulg'ayish davomida boquvchisini yuqotgan bolalar tug'risida . Izlanishlar barobarida boquvchisini yo'qotgan bolalarda kechadigan ruhiy holatlar, ularning hayotga kirib kelishida ota onaning mehri , bolaning hayotida ro'y beradigan voqealar bilan bir qatorda uning atrofdagilarga nisbatan beradigan javob reaksiyasi , olayotgan talimi qanday muhitda tarbiyalanayotgani va yon atrofdagi har bir insonning ahamiyati ham o'rganildi . Endigina voyaga yetayotgan bola ota onadan kerakli tarbiya olishi zarurligi ,agarda bu tarbiya yetarli bo'lmasa uning kelajakda yetuk shaxs bo'lib yetishishida turli xil depressiv holatlar shuningdek hissiy-subyektiv xatti harakatlarning bolaga o'tkazadigan ta'siri haqida.

**Kalit so'zlar:** Hissiy-subyektiv xatti harakatlari, jismoniy, ma'naviy holati, yetuk shaxs, oilaviy muhit tarbiyasi, eksternat tartib

Ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari shaxsning jismoniy, ma'naviy holati va aql-zakovat jihatidan rivojlanishiga asos solishlari lozim. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaning ma'lumotni oilada olishi uchun imkoniyat yaratib berishga haqlidirlar. Bunday hollarda o'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan ta'lim muassasasi, ta'limni boshqaruvchi tegishli idora o'rtasida shartnoma tuzilib, unda bola, oila va jamiyatning manfaatlari hisobga olingan holda tomonlarning huquqiy, iqtisodiy va boshqa majburiyatlari belgilab qo'yiladi. Bolalarga uy sharoitlarida ta'lim berish o'quv yurtlarining dasturlari bo'yicha amalga oshirilib, keyinchalik eksternat tartibida attestatsiyadan o'tkaziladi. Oilada ta'lim olayotgan shaxslar tegishli attestatsiyadan o'tgach, ta'limni istalgan bosqichidan boshlab o'qi shni ta'lim muassasasida davom ettirishga haqlidirlar. Davlat oiladagi ta'limga yordam ko'rsatadi. Tegishli davlat muassasalari tomonidan qonunlarda belgilangan tartibda metodik, diagnostik, maslahat yordami beriladi. Qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda oilaga kompensatsiya to'lanishi mumkin.<sup>1</sup> Ushbu qarorda ta'kidlab o'tilganidek shaxsning kelajakda yetuk shaxs bo'lib yetishishida yoshlikda oladigan bilimi, shu bilan bir qatorda

boquvchisini yo'qotgan bola bo'lsa ularning o'rnini bosa oluvchi shaxslarning huquqlari, ularning bola hayotiga befarq bo'lmasliklari, agarda yordamga muhtoj bo'ladigan bo'lsa ta'lim olishda davlat tomonidan yordam puli ya'ni kompensatsiya to'lab berishi yoritib berilgan .

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan bolalarning ta'lim olishi uchun ularning yetuk va komil inson bo'lishlari uchun turli qarorlar va ularni amalga oshirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu o'rinda boshlang'ich ta'lim sohasidagi eng so'nggi izlanishlar ham ahamiyatga molikdir. Negaki, davlatimiz rahbari tomonidan aynan yolg'iz tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan moddiy va ma'naviy yordamning berilishi bu albatta ta'lim tizimiga juda katta e'tibor berilayotganining yaqqol dalilidir. Bolalar uyida boshlang'ich ta'lim olayotgan sog'lom yoshlar yoxud faqat onasi/otasi tomonidan voyaga yetkazilayotgan bolalarning kemptik bo'lib qolmasligi, tengdoshlari bilan bir xil natijalarga erishishi uchun shaksiz ularning ilk saboqlari juda muhim rol o'ynaydi. Demak, bunday toifadagi o'quvchilarga nisbatan o'qituvchi ham o'z kasbiga xos mehr, ham onasi/otasining mehrini to'dira oluvchi insoniy fazilatlari bilan yondashishi kerak. Hali endi hayotga qadam qo'yib kelayotgan va otasi yoki onasi tomonidan tarbiyalanayotgan bolaga nisbatan etibor berilishi lozim . Kemptik bo'lib o'sayotgan bolaga nisbatan o'qituvchi etiborli bo'lishi, dars berish mobaynida unga nisbatan samimiy qarash turli hil bola bajara oladigan topshiriqlar berib, topshiriqlar o'qituvchi xohlagan darajada bajarilmasada, bunda bolalar rag'banlantirilib, o'zi tengi bolalar oldida ruhlantirilib turishi kerak . Bola o'z oilasida ololmagan mehr e'tiborni boshqa o'ziga yaqin insonlardan izlay boshlaydi . Kichik yoshdagi va endigina maktabga borib boshlang'ich sinflarda ta'lim olishni boshlagan bolalar uchun ustozini o'zining ikkinchi otasi yoki onasidek qabul qiladi va mehr ,undan turli rag'batlantiruvchi so'zlar, ba'zi hollatlarda o'zi tengilar oldida ko'proq e'tibor talab qiladi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi pedagogik mahoratini ko'rsata olishi shuningdek bolalarning pisoxalogik tomondan tushkinlikka tushib qolmasligiga harakat qilishi kerak .

Bola yoshligidan to'g'ri ta'lim tarbiya ololmadimi unda kelajakdagi hayotda ham turli qiyinchiliklarga duch keladi.Unda yoshlikdagi olingan ta'lim tarbiyaning o'rni katta ahamiyatga ega . Boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiyani to'g'ri, ya'ni belgilab qo'yilgan qonun-qoida me'yorlariga asosan to'liq etapda o'qiy olmaydi. "Yetim bolalarni va ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish Etim bolalarni va ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning tola ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi". Umumiy o'rta talim bosqichlari

quyidagicha: Boshlang'ich talim (I-IV sinflar); Umumiy o'rta talim (IV-IX sinflar). Boshlang'ich talim umumiy o'rta talim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o'rta talim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqqil fikrlash, tashltilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichmi tanlashga yordam beradi. Bolalarning qobiliyat ,is'tedodnini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi murnkin.<sup>3</sup> Ushbu qarorlardan kelib chiqadiki bolaga yoshlikdan to'g'ri ta'lim tarbiya berish davlat siyosatiga ko'tarilgan . Chunki yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh singaridur. Yetarlicha muhit yaratib berilmagan oila tarbiyalanuvchisi undan keyingi hayoti davomida ham qiyinchiliklarga duch kela boshlaydi. O'zining yon atrofdagilarga nisbatan sovuqqon shu bilan birga ularga nisbatan shavqatsizroq munosabatda bo'la boshlaydi. Keyinchalik bunaqa muhitda ulg'ayayotgan shaxs kelajakdagi ish jarayonlarida, oilasida o'zining farzandlariga, qo'l ostida ishlovchi ishchi xodimlariga, tevarak olamdagi, uni o'rab turgan va unga qanaqadir kerak bo'lgan shaxslarga nisbattan sovuqqon, qattiq qo'l bo'ladi. Ish jarayonlarida no sog'lom muhit tarbiyalanuvchisiga nisbatan kichik yoqimsiz muomalada bo'lishadigan bo'lsa, bunaqa insonlar tez asabiylashishi , qo'pol ohang orqali javob qaytarishi, yoki o'ziga ortiqcha zarar yetkazib, jismonan zo'riqishi va ruhan siqilishi mumkin. Binobarin, bunaqa toifadagi insonlarda tez-tez siqilish, turli xil depressiv holatlar, g'azablanish zo'riqish , tushkinlikka tez tushish holatlari kuzatiladi.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinfda o'qiyotgan boquvchisini yo'qotgan bolalarda yoshlikdan hayotida bo'layotgan voqealar har bir insonning unga nisbatan bo'ladigan xarakteristikasidan o'ziga kerakli bo'lgan e'tiborni to'liq ololmasligi natijasida, o'zining hayotida ham undan yordam kutayotgan shaxslarga nisbatan sovuqqon munosabatta bo'lishi kuzatiladi. Binobarin, boshlang'ich ta'lim jarayonlarida olingan bilim va ko'nikmalar inson hayotidagi keyingi bosqichlarda ham katta ahamiyatga egadir. Boquvchisini yo'qotgan bolalar hayotining keyingi davrlarida bo'ladigan ish va turmush jarayonlariga uning yoshlikdagi olgan bilimning to'liqmasligi, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan har doimigi bosim hamda qo'pol bo'lib tuyiladigan gaplar, buyruqlar shu bilan birga nosog'lom va uchun otasi onasining har birining beradigan ta'lim tarbiyasi va hayotidagi ahamiyati kattadir. Bola o'ziga kerakli zaminda ulg'aymadimi, demak bunaqa bolalarda keyingi hayotida sabiy ta'sirlar kuzatiladi va yetuk shaxs bo'lib yetishishda qiynaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lex.uz.com-11,22-bandlar
2. Sh.Mirziyoyev-Prezident xabarlari.com
3. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch,2008-192-bet